

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI KAUZATIV FE‘LLARNING
LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING NUTQIY
VOQELANISHIDAGI O‘XSHASHLIK VA FARQLAR**

Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna

Farg‘ona davlat universiteti

Ingliz tili amaliy kursi o‘qituvchisi (PhD)

1960-yillardan boshlab kauzativlik faol muhokama qilinayotganiga qaramay, turli tillardagi kauzativ bog‘lanishlarning butun bir xilma-xilligini ifodalovchi universal ta’rifi berilmagan edi. M.Shibatani: “Kauzativlikni aniqlash oson emas, agar unga to‘liq ta’rif bera olsak, unga sabab ko‘rsatkichi doirasida amalga oshirilgan barcha konstruksiyalarning grammatik xususiyatlari tavsifi ham kiritilgan bo‘lar edi”, deb ta’kidlab o‘tgan.

Kauzativlikni haqli ravishda tilning eng sirli, to‘liq o‘rganilmagan kategoriyalaridan biri deb atash mumkin. Uni o‘rganishning gullab-yashnashi XX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi, ammo hozirgi kungacha dunyoning ko‘plab tillari tizimida kauzativlik o‘rni aniqlanmagan.

Qiyoslanayotgan tillarda kauzativ fe‘llarning struktural turlarini quyida ko‘rib chiqamiz:

O‘zbek tilida sodda kauzativ fe‘llarga buyurmoq, undamoq, so‘ramoq, chorlamoq, chaqirmoq, siltamoq, itarmoq, ag‘darmoq, chalmoq va boshqa fe‘llarni misol sifatida keltirishimiz mumkin. Masalan: – Sizlar ham yeb qolinglar, qalandarning noni, mozbosdi – tabarruk, – deb la’lini Safarga qaratib itardi (S.Ayniy, Qullar).

Ingliz tilida sodda kauzativ fe‘llarga ask, beg, command, make, force, help, request, pull, push va boshqalar kiradi. Masalan: the wind forced them to take shelter in the cave (D.Defoe, Robinson Crusoe).

O‘zbek tilida yasama kauzativ fe‘llarga qoplamoq, yakkalamoq, yolg‘izlamoq, tamomlamoq, muzlatmoq, ishlatmoq kabi fe‘llarni kiritishimiz mumkin. Masalan: ...shafqatsiz, beomon taqdir yoshligidan qiynoqqa soldi. Sevgilisi Zubaydadan judo qilib, yakkalab qo‘ydi (K.Yashin, Hamza).

Yasama kauzativ fe‘llarga ingliz tilida quyidagi fe‘llar kiradi: to modernize, to purify, to clarify, to simplify, to satisfy, to familiarize, to legalize, to spiritualize. Masalan, the detective’s meticulous investigation finally satisfied the grieving family’s thirst for justice (D.Hammett, The Maltese Falcon).

Qo‘shma kauzativ fe‘llarga o‘zbek tilida majbur qilmoq, talab qilmoq, talab qo‘ymoq, iltijo qilmoq, iltimos qilmoq kabi fe‘llarni misol keltirishimiz mumkin. Masalan: ...qish chiqqanicha madrasa qurilishida xizmat qilsam.. – deb iltimos qildi (Mirmuhsin, Me‘mor).

Ingliz tilida qo‘shma kauzativ fe‘llarga sintaktik konstruksiyalarni misol qilishimiz mumkin. Masalan: make + object + verb, let + object + verb, have + object + verb, get + object + to-verb, force + object + to-verb va boshqalar. Masalan: the queen’s decree had the soldiers march into battle (W.Shakespeare, Hamlet). – Qirolichaning farmoni askarlarni jangga kirishishga undadi.

Qiyoslanayotgan tillardagi kauzativ bog‘lanishni quyidagilarda ko‘rib chiqamiz:

1) kauzativ holat oddiy sabab bog‘lanish bilan bog‘liq. Ushbu modelga to have, to get fe‘llari misol bo‘ladi, masalan: He must change his tie and collar and get his hair cut and go back and report. – U galstuk va yoqani to‘g‘rilab, sochini oldirib, orqaga qaytib hisobot berishi kerak.

O‘zbek tilidagi orttirma nisbat qo‘shimchalari -t, -tir, -dir, -ir, -ar, -iz, -kaz, -qaz, -giz, -qiz, -g‘iz, -it ushbu bog‘lanishga misol bo‘ladi, masalan: Mohira oyim har bir hayitda biror oylar ilgari eriga aytib, bolalariga kiyimlik oldirar edi (A.Qodiriy, O‘tkan kunlar);

2) kauzativ fe‘llar majburlash ma‘nosini ham ifodalaydi, ya‘ni subyekt obyektни biron ish qilishga majbur qiladi. Ingliz tilida to cause, to make, to compel, to force, to urge (majbur qilmoq) kabi fe‘llar misol bo‘ladi, masalan: Make him pay for the line, he thought. Make him pay for it (Hemingway E. The old man and the sea). Chilvirni qanday sug‘urib ketishni ko‘rsatib qo‘yaman unga! Ha, ko‘rsatib qo‘yaman hali! (E.Xeminguey, Chol va dengiz);

O‘zbek tilida faqat kauzatsiya elementining o‘zinigina ifodalaydigan sof analitik kauzativ, asosan, majbur qilmoqdir. Masalan: Oradan uch kun o‘tgach, tashqi olamning alg‘ov-dalg‘ovlari Humoyunni yana qurollanib otlanishga va yovga qarshi qo‘shin tortishga majbur qildi (P.Qodirov, Avlodlar dovoni)

3) kauzativlikni iltimos qilish ma‘nosi ingliz tilida quyidagi fe‘llar bilan ifodalanadi: to ask, to inquire (so‘ramoq), to beg, to entreat, to implore, to plead, to beseech (iltimos qilmoq). Masalan: **The looming deadline haunted him, forcing him to beg for an extension he wasn’t sure he’d receive** (W.Shakespeare, The Merchant of Venice). – Yaqinlashib kelayotgan muddat uni hayajonga solib, uni olishiga ishonchi komil bo‘lmagan muddatni uzaytirishni so‘rashga majbur qildi.

O‘zbek tilida iltimos qilmoq, iltijo qilmoq kabi analitik kauzativ fe‘llar bunga misol bo‘ladi. Masalan: ...qish chiqqanicha madrasa qurilishida xizmat qilsam – deb iltimos qildi (Mirmuhsin, Me‘mor)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баклагова Ю.В. Функционально-семантическая категория каузативности в русском и немецком языках // Проблемы сопоставительной лингвистики, 2008, № 6. – С. 242.
2. Фуломов А.Ф. Фейл. – Тошкент: Фан, 1954. – Б. 63.
3. Курбанназаров П. Категория каузативности и межуровневые способы её выражения. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – С. 22.
4. Махмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б. 27.
5. Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 120-130.;
6. Содиқова М. Фейл стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 38.